

IMPROVEMENT OF RISK MONITORING AND EVALUATION SYSTEMS IN COMMERCIAL BANKS.

Ergashev Arslonbek Safar o'g'li

MBA graduate student of the Academy of Banking and Finance.

Abstract: Lending by commercial banks is expanding. They must increase and develop their services in order to keep pace with the development of the times and to be able to withstand the competition. This, in turn, requires scientific and practical research to bring the private capital of commercial banks closer to the level of national and international standards. The emergence of problem loans in the implementation of credit operations makes it necessary to regulate their accounting based on the requirements of international standards. Based on this necessity, improvement of risk monitoring and assessment systems in commercial banks is one of the urgent issues

Keywords: Commercial bank, debit, credit, credit account, activity, currency, capital, reserve fund, balance sheet, Credit operations, contract, balance sheet.

Introduction

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning predmeti bo'lib, tijorat banklar faoliyati natijasida sodir bo'ladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning holati va o'zgarishini o'rganish hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari turli faoliyat bilan shug'ullanadigan mijozlarga xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarni amalga oshirish uchun tijorat banklari zarur moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga ega bo'lishlari lozim. Moddiy resurslar deganda, asosiy vositalar, ya'ni turli xil asbob-uskunalar, hozirgi zamon kompYuter texnologiyalarini tushunish lozim. Tijorat banklarida bunday asosiy vositalardan qanday foydalanilayotganligi va ularning holati muntazam tahlil qilib boriladi.

Tijorat banklari turli hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini omonat va depozitlarga qabul qiladilar, mijozlarga kreditlar beradilar, chet el valyutalari bo'yicha va bir vaqtning o'zida o'z kassasi orqali naqd pullar bo'yicha muomalalarni amalga oshiradilar. Ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan zaxira hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'lishi mumkin. Bunday mablag'larning holati, harakati hamda ulardan qanday foydalanilayotganligi tahlil qilinishi lozim. Banklarda zarur mutaxassislik bilimlarini egallagan xodimlar ishlaydi. Bank xodimlarining soni, ularning o'zgarishi va

xodimlar tomonidan mehnatni tashkil etishni vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turish alohida ahamiyatga egadir.

Tijorat banklari mijozlarga xizmat qilish jarayonida turli xarajatlar qiladilar, shu bilan birga mijozlarga bergan kreditlari bo'yicha foizli daromadlar va mijozlarga ko'rsatgan boshqa xizmatlari bo'yicha ham daromadlar oladilar. Ularning daromad va xarajatlari ham muntazam ravishda tahlil qilib borilishi lozim. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi tijorat banklari ham bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga kirishgan holda faoliyat yuritadilar. Tijorat banklari raqobatda yengilmaslik uchun o'zining moliyaviy natijalarini va likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam ravishda tahlil qilib borishi kerak.

Tijorat banklarida amalga oshirilayotgan barcha muomalalar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ular bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobvaraqlarida qayd etiladi va shundan so'ng buxgalteriya balansi hamda boshqa hisobotlarda aks ettiriladi. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda buxgalteriya hujjatlari, balans va boshqa hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Ular o'z faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtiradilar va iqtisodiy tahlilni o'tkazishda bu ko'rsatkichlarning haqiqiy miqdori reja yoki belgilangan me'yorlar bilan taqqoslangan holda o'rganiladi hamda sodir bo'lgan o'zgarishlarning sababi aniqlanadi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, juda ko'p tijorat banklarining joylarda viloyat mintaqaviy filiallari, filiallari va mini-banklari mavjud. Ushbu banklarning Respublika boshqarmasida viloyat mintaqaviy filiallari bo'yicha taqqoslama tahlilini amalga oshirishga katta imkoniyat mavjud. O'z o'rnida viloyat mintaqaviy filiallarida esa tuman filiallarining ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanib, qaysi filialning ko'rsatkichlari juda yuqori, qaysi filialning ko'rsatkichlari juda past ekanligini aniqlanib, ularning sabablari va omillarning ta'siri o'rganilib, muayyan filial ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni o'z vaqtida o'tkazgan holda bank faoliyati to'g'ri xulosalar asosida boshqarilsa, bunday tijorat banklari yuqori natijalarga erishishi aniq. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlar bo'lishi lozim. Ushbu ma'lumotlar turli axborot manbalaridan olinadi. Bunda qayerdan, qanday ma'lumotlar olinishi tahlilning mavzusi, maqsadi va vazifasiga bog'liq. Umuman tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uchun me'yoriy (belgilangan) va strategik ma'lumotlardan tashhori buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisobot, aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomalari, auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha hujjatlar va shu kabi boshqa hujjatlar ma'lumotlari zarur bo'ladi.

Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan bank kreditlari hajmining oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat qilib borish asosiy ishi deb talab qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, farmoni bank tizimining boshqarish mexanizmlarining xar bir elementini o'zaro

bog'liq xolda o'rganish va tahlil etish orqali mavjud muammolarni echimini topish va ularni o'z vaqtida bartaraf etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda bank aktivlari tarkibida kreditlarning ulushi 80 foizga, kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 95 foizga, xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi 55 foizga yaqin bo'lishi kredit riskining darajasi yuqoriligidan hamda u to'g'risida ma'lumotlar tez va sifatli shakllanish zarurligidan dalolat beradi. Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda.

Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z xizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda.

Shuningdek, tijorat banklari nafaqat sub'ektlarni kreditlash balki, ushbu resurslardan kutiladigan natijani buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilishni taqozo etadi. Shuningdek, kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralari jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda xar bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi. Shu o'rinda kredit liniyalari haqida to'xtalib o'tsak. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma'lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda induvidual tartibda ko'rib chiqilishidadir. Kredit ma'lum maqsaddagi mablag' ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo'llaniladi. Ikkinchi usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo'yilgan kredit limiti bo'yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo'yilgan to'lov hujjatini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi.

Ochilgan kredit liniyasi kredit hisobiga barcha hisob-kitob pul hujjatlarini bank va mijoz o'ptasidagi shartnomaga asosan to'lash 1 yilga ochiladi, ammo kredit liniyasi undan qisqa muddatga ham ochilishi mumkin. Kredit liniyasi muddati davomida mijoz bank bilan qo'shimcha kelishuvni istagan vaqtida kredit olishi mumkin. Ammo bank qarz oluvchining moliyaviy holatini zaiflashganini aniqlasa, mijozga belgilangan limit chegarasida kredit berishdan bosh tortishi mumkin. Kredit liniyasi, odatda, moliyaviy barqaror va e'tiborli mijozlarga ochiladi. Mijoz iltimosiga binoan kreditlash limiti qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Kredit liniyasi – bank yoki boshqa kredit tashkilotining qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir. Kredit liniyasining ochilishi kreditor va qarzdorning uzoq muddat davomidagi xamkorligini anglatadi. Shu o'rinda xalqaro kredit liniyasiga ta'rif berib o'tsak: xalqaro kredit liniyasi bu xalqaro miqiyosda qarz oluvchiga ma'lum davr mobaynida kelishilgan limit doirasida huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan kredit berish majburiyatidir.

Tijorat banklarida kreditlarni hisobga olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 13 avgust 773–17–son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki Boshqaruvining 2004 yil 17 iyuldagi № 578 qarori bilan tasdiqlangan va 17–30–son o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan birga «O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi»da keltirilgan hisobvaraqlardan foydalaniladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo‘yicha chiqarilgan me‘yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

Xorijiy valyutada berilgan kreditlarni hisobga olish uchun quyidagi balans hisobvaraqlaridan foydalaniladi:

1) qisqa muddatli kreditlar uchun:

11900 - Markaziy bankka berilgan qisqa muddatli kreditlar

12100 - Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12300 - Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12400 - Byudjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12500 - Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12600 - Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12700 - Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar

12900 - Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar 13000 - Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar

13100 - Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

13200 - Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar 2) uzoq muddatli kreditlar uchun:

14500 - Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar

14700 - Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar

14800 - Byudjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar

14900 - Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar

15000 - Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar

15100 - Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar

15200 - Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar

15300 - CHet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar 15400 -

Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar 15500 - Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar Ushbu hisobvaraqlarning debet tomonida qoldiq va ko‘payish, kredit tomonida esa kamayish aks ettiradi.

Buxgalteriya hisobi vazifalarini tizimlashgan holda banklarda kreditlar hisobi vazifalari ham alohida guruhlandi:

- bankning kredit faoliyati asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha rejaning bajarilishini nazorat qilish;
- bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri belgilash;
- bank kreditlarini tan olish va ularni hisobda aks ettirish to‘g‘riligini ta‘minlash;
- bank kreditlari hisobini to‘g‘ri yuritish va moliyaviy hisobotlar tayyorlash uchun ma‘lumot bilan ta‘minlash;
- zamonaviy takomillashgan hisob tizimini tadbiq qilish, bank kreditlari ko‘rsatkichlari uslubiyoti va moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish;

•bank faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'tkazilgan tahlil va tezkor nazoratga zarur ishonchli va aniq ma'lumotlarni shakllantirish.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimini xalqaro me'yor va andozalar asosida yanada takomillashtirish borasidagi ishlarni davom ettirish.

Xususan, 2015 yilda:- tijorat banklaridagi korporativ boshqaruv organlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish hamda uning yuqori darajadagi shaffofligini ta'minlash maqsadida turli me'yoriy hujjatlar va ko'rsatmalarda banklardagi korporativ boshqaruv bo'yicha belgilangan norma va talablarni yagona hujjatga birlashtirish;

- banklarga yangi mijozlar, investorlar va hamkorlarni jalb qilish sharoitlarini yanada yaxshilash maqsadida banklarning boshqaruv organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning aktsiyadorlar, omonatchilar, boshqa manfaatdor shaxslar hamda moliya va pul bozori ishtirokchilari uchun ochiqligini ta'minlash borasidagi ishlarni kengaytirish;

- banklar faoliyatini boshqarish jarayonida samarali va to'g'ri qarorlar qabul qilinishini ta'minlashda jamoaviy tajribani rivojlantirish maqsadida bank Kengashining maqbul tarkibi, Kengash a'zolarining belgilangan malakaviy talablarga rioya etishlari ustidan nazoratni kuchaytirish;

- bank Kengashlari tarkibini shakllantirish jarayonida yuqori malakali va betaraf a'zolari tanlash va tayinlash tartibini joriy etish orqali Kengashlar mustaqilligini oshirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada oshirish, resurs bazasini mustahkamlash va diversifikatsiyalash.

Bunda asosiy e'tibor:

- tijorat banklarining kapitallashuv darajasi kamida 20 foiz miqdorda o'sishini, shuningdek, bank aktsiyalarini chiqarish va ularni aholi va boshqa investorlar o'rtasida joylashtirish orqali bank ustav kapitalining o'sib borishini ta'minlashga;

- bank tizimining umumiy ustav kapitalida nodavlat sektor ulushini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni sifatli amalga oshirishga;

- aktsiyalar chiqarilayotganligi va ularning fond birjasida sotilayotganligi haqida respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida olib borilayotgan targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini yanada oshirishga qaratiladi. O'z navbatida, tijorat banklari resurs bazasini yanada mustahkamlash maqsadida bozor vositalari va mexanizmlaridan samarali foydalanish hisobiga, shu jumladan, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda omonatlar va depozitlarning yangi turlarini muntazam joriy etib borish, muomalaga uzoq muddatli obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va boshqa qimmatli qog'ozlar chiqarishga, shuningdek, subordinarlangan qarzlarni faol jalb etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Tijorat banklaridagi omonatlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Hukumat qarorini va unga muvofiq Markaziy bankning tegishli me'yoriy hujjatini ishlab chiqish hamda unda:

- tijorat banklarining depozit siyosatini yanada takomillashtirish;

- omonatlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'liq qaytarilishi kafolatlarini yanada mustahkamlash;
- omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini maqbullashtirish;
- tijorat banklarining umumiy omonatlari tarkibida uzoq muddatli omonatlar ulushini oshirib borish;
- omonatlar muddatlarini bank aktivlari muddatlaridan kelib chiqqan holda optimallashtirishni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlarni aks ettirish ko'zda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдикаримова Д.Р. Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш. Монография. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2016. – 168 б.
2. Абдикаримова Д.Р. Хориж амалиётида банк кредитлари бўйича гаровни баҳолашнинг асосий тамойиллари ва таъминот турлари.//«Biznes- эксперт» журнали. – Тошкент, 2016. - №3. – Б. 29-33. (08.00.00; №3)
3. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Т.: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017. – 768 b.
4. Omonov A.A. Tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarish.- Monografiya.-Т.: —IQTISOD-MOLIYal.-2016.-B.160.
5. Azizov U.O', Qoraliyev T.M. va boshqalar. Bank ishi. Т.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. – 640 b.
6. Банковский менеджмент. Под ред. Проф. О.И. Лаврушина. Учебник. - М.КНОРУС, 2016. - 414 с.
7. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - М.: Алпина Паблишер, 2017. - 1018 с.